

**KAMBAG'ALLIK VA UNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI**

*Shahboz Shamsiddinov Shahobiddin o'g'li*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

*[shamsiddinovshahboz04@gmail.com](mailto:shamsiddinovshahboz04@gmail.com)*

**Annotatsiya**

Kambag'allik va qashshoqlik ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Qashshoqlik iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirib, davlat byudjetiga qo'shimcha yuk yuklaydi. Mazkur masala iqtisodiyotda noqulay sikllarni buzish va jamiyatning farovonligini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu maqolada dunyoda kuzatilayotgan qashshoqlik muammosi O'zbekistonga ta'siri va oldini olish choralari to'g'risida fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Aholi, kambag'al, qashshoq, statistika, qonunchilik.

**Abstract**

Poverty is one of the main factors that hinder social and economic development. Poverty increases economic inequality and puts an additional burden on the state budget. This issue is of strategic importance for breaking unfavorable cycles in the economy and improving the well-being of society. Opinions on the impact of the poverty problem observed in the world on Uzbekistan and preventive measures are presented.

**Keywords:** Population, poor, destitute, statistics, legislation.

Kambag'allik va qashshoqlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu hodisalar nafaqat aholining yashash darajasini pasaytiradi, balki iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'diradi. Kambag'allik mamlakatlarda mehnat resurslarining pasayishiga olib keladi va bu orqali ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada kamayadi. Davlat uchun esa bu muammo ijtimoiy dasturlar va yordam mexanizmlariga katta mablag' yo'naltirishni talab qiladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga kamroq sarmoya ajratilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil fevraldagi parlamentga murojaatida ilk bor O'zbekiston aholisining kambag'al qatlami haqida so'zladi. Respublika aholisining 12-15 foizi kambag'al ekani, ularning umumiy soni 4,5-5 million nafarligini ta'kidladi. Pandemiya va uning salbiy oqibatlari mamlakatda kambag'allik darajasi yanada ortishiga olib keldi. Ayni paytda bu bo'yicha yangi

hisob-kitoblar ma'lum qilinganicha yo'q1. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi va Statistika agentligi tomonidan 2023-yil uchun O'zbekistonda kambag'allikni darajasi tahlil qilindi. Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan 16 mingta uy xo'jaliklari kuzatuvlariga ko'ra, mamlakatimizda kambag'allik darajasi ushbu yil



yakunida 11 foizgacha pasaydi. Jahon banki ekspertlari tomonidan tekshiriladigan ma'lumotda kambag'allik o'tgan yilga nisbatan 3% ga qisqargani va bu ko'rsatkich o'sha vaqtda 14% ni tashkil etgani ma'lum qilingan.

### 1-rasm. O'zbekistonda o'tgan yillardagi kambag'allik darajasi<sup>2</sup>

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida 2023-yil uchun kambag'allik darajasi 11,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,1 % punktga kamaydi. Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bir qator ishlar tizimi yo'lga qo'yilgan va kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining ma'lumotlariga asosan bu borada yetarlicha yutuqlarga erishilganligini ko'rishimiz mumkin:<sup>3</sup>

-O'zbekistonda so'nggi yillarda kambag'allikni kamaytirish va aholi bandligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bir qancha muhim tashabbuslar amalga oshirilgan. Xususan, ish o'rinlarini yaratish, aholini kasb-hunarga o'qitish va o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ko'plab fuqarolarning daromad topish imkoniyatlari yaxshilandi.

-Hokim yordamchilari ko'magi bilan ko'plab fuqarolarga yer maydonlari ajratilib, ularga o'z faoliyatini boshlash uchun zarur sharoit yaratildi. Bundan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus dasturlar joriy etildi, bu esa ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

<sup>1</sup> Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”2023

<sup>2</sup> Stat.uz

<sup>3</sup> Stat.uz

-Mahallabay yondashuv asosida amalga oshirilgan loyihalar natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilib, ishsiz fuqarolarni mehnat bozoriga integratsiya qilishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Shuningdek, ko‘plab fuqarolar kasb-hunar o‘rgatish dasturlari orqali zamonaviy mutaxassisliklarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Ushbu chora-tadbirlar mamlakatda kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam bermoqda. Bu yondashuv O‘zbekistonda barqaror taraqqiyot sari dadil qadam tashlanayotganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizdagi qashshoqlikning ko‘rinishi va uning sabablarini SWOT tahlili ko‘rinishida izohlaydigan bo‘lsak:

<b>S (Strengths) - Kuchli tomonlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Hukumat tomonidan qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan strategik dasturlar ("Temir daftar", "Ayollar daftari").</li> <li>- Yosh va mehnatga layoqatli aholining ko‘pligi.</li> <li>- Diversifikatsiya qilinayotgan iqtisodiyot va yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan islohotlar.</li> <li>- Ijtimoiy yordam dasturlarining kengaytirilishi.</li> </ul>
<b>W (Weaknesses) - Zaif tomonlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Qashshoqlik darajasining yuqoriligi, ayniqsa qishloq joylarda.</li> <li>- Ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar va ularga yetarli mablag‘ ajratilmasligi.</li> <li>- Norasmiy iqtisodiyotning keng tarqalganligi.</li> <li>- Ijtimoiy tengsizlik va resurslarning noteng taqsimlanishi.</li> </ul>
<b>O (Opportunities) - Imkoniyatlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik orqali qashshoqlikni kamaytirish loyihalarini amalga oshirish.</li> <li>- Turizm, xizmat ko‘rsatish va IT sektorlarini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish.</li> <li>- Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish.</li> <li>- Raqamli iqtisodiyot va masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish.</li> </ul>
<b>T (Threats) - Xatarlar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Tabiiy resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini.</li> <li>- Global iqtisodiy inqirozlar va pandemiyalarning iqtisodiyotga ta‘siri.</li> <li>- Ishsizlik darajasining oshishi xavfi.</li> <li>- Migratsiya sababli malakali ishchi kuchining kamayishi.</li> </ul>

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar sezilarli natijalar bermoqda. So‘nggi davrda mamlakatda qashshoqlik darajasi keskin kamayib, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Hukumat tomonidan ish o‘rinlarini yaratish, fuqarolarni kasb-hunarga o‘rgatish va kichik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali aholini band qilishni ta‘minlashda katta yutuqlarga erishilmoqda. Shuningdek, yer maydonlarining ijaraga berilishi va maxsus dasturlar orqali tadbirkorlikni rivojlantirish choralari fuqarolarning daromad topish imkoniyatlarini oshirdi. Mahallabay ishlashga asoslangan yondashuv esa turli hududlarda yangi imkoniyatlar yaratib, odamlarni mehnat bozoriga jalb qilishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu siyosat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lidagi yutuqlarini yaqqol namoyon etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”2023
2. <https://gov.uz/uz/bv/news/view/5337>
3. Stat.uz
4. Open.info